GLOBALLASHUV SHAROITIDA ONLAYN TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA SALBIY TOMONLARI

Tojibayeva Manzura Otajon qizi
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
1-bosqich talabasi
Tel raqami: +998-99-081-58-54 yoki
Email address: mirziyoyevamuslima1@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada so'nggi yillarda shiddat bilan rivojlanib, dunyoning ko'plab davlatlarida joriy etilayotgan masofaviy ta'limning kelib chiqishi, o'quvchi va talabalar uchun taqdim etadigan ijobiy va salbiy tomonlari ko'rib chiqiladi. Onlayn ta'limning ijobiy tomonlari shundan iboratki, u talabalarga qimmatli vaqtlari va mablag'larini tejashga, qo'shimcha o'z ustida ishlashlariga, xavfsizlikni ta'minlashga imkon yaratadi. Salbiy tomonlari esa nazoratning sustligi sabab intizomning yo'qolishi, internetning past tezlikda ishlashi va ta'lim sifatining tushib ketishidadir. Maqola so'ngida esa masofaviy ta'limnig istiqboli va undan keng darajada foydalanish kerakligi, bu nafaqat student va o'quvchilar, balki mamlakat uchun ham foyda ekanligi ta'kidlanib, xulosa qilinadi.*

Kalit so'zlar: *masofaviy ta'lim, student, o'qituvchi, internet, globallashuv, onlayn platforma.*

Аннотация: *В данной научной статье рассматриваются положительные и отрицательные стороны дистанционного обучения, которое в последние годы стремительно развивается и внедряется во многих странах мира, с точки зрения учащихся и студентов. Положительные аспекты онлайн-обучения заключаются в том, что оно позволяет студентам экономить ценное время и финансовые средства, предоставляет возможности для дополнительной самостоятельной работы и обеспечивает безопасность. К отрицательным сторонам относятся ослабленный контроль, приводящий к утрате дисциплины, низкая скорость интернет-соединения, а также снижение качества образования. В заключение статьи подчёркиваются перспективы дистанционного обучения и необходимость его широкого применения, поскольку оно приносит пользу не только студентам и учащимся, но и стране в целом.*

Ключевые слова: *дистанционное образование, студент, преподаватель, интернет, глобализация, онлайн-платформа.*

Kirish

Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar yuz berib, an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda onlayn ta'lim ham keng joriy etilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'lim tizimiga juda katta e'tibor qaratgani hamda

masofaviy ta’lim taqdim etadigan afzalliklari natijasi o‘laroq, onlayn ta’lim nafaqat mustaqil O‘zbekistonimizning, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.Bu ta’lim shakli o‘quvchi va talabalarga makon va vaqt cheklovlarisiz o‘qish, o‘z ustida mustaqil ishlash va xavfsiz sharoitda bilim olishiga zamin hozirlaydi.Shu bilan birga, onlayn ta’lim jarayoni muayyan muammo va cheklovlardan ham xoli emas. Xususan, masofaviy ta’lim o‘quvchilarda intizomning sustlashishiga, internet bilan bog‘liq muammolarga duch kelishlariga va ta’lim sifati tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi soniyalar sayin rivojlanib borayotgan zamonda onlayn ta’limning ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rib chiqib, chuqur tahlil qilish jamiyat oldidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Masofaviy ta’limning kelib chiqishi

Hozirda ta’limning ajralmas qismiga aylanishga ulgurgan masofaviy ta’limning tarixi Sokratik davrga tegishli bo‘lib, unda o‘qituvchilar o‘z shogirdlariga darslarni yozib berishgan. Keyinchalik, o‘n to‘qqizinchi asrda Isaak Oderning yozish mashinkasi va yigirmanchi asrda radio va televideniyening paydo bo‘lishi masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirdi.1980-yillarda komputer va onlayn platformalarning rivojlanishi bilan masofaviy ta’lim yanada qulay va interaktiv bo‘ldi. 2010-yillardan boshlab esa massiv ochiq onlayn kurslar masofaviy ta’limda yangi davrni boshlab berdi.

Mustaqil O‘zbekistonimizda esa masofaviy ta’lim 2020-yil pandemiya davrida keng joriy etildi va bugungi kunda oliy o‘quv yurtlari, maktablar va o‘quv markazlarida qo‘llanilmoqda. Oliy ta’limda masofaviy ta’lim quyidagi platformalarda olib boriladi:

Moodle;

Google Classroom;

Zoom va Microsoft Teams;

OTMlarning ichki platformalari (masalan, HEMIS bilan integratsiya qilingan tizimlar).

2021-yildan boshlab masofaviy ta’lim O‘zbekistonning normativ-huquqiy hujjatlarida ham mustahkamlangan.

Masofaviy ta’limning afzalliklari

O‘zbekiston ta’lim tizimida COVID-19 davrida birinchi marotaba joriy etilgan bo‘lishiga qaramasdan, hozirgi kunda onlayn ta’limi tizimi student va o‘quvchilarimizga juda ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi va ular quyidagilardan iborat:

Vaqt va zamon tanlamasligi. Bilamizki, masofaviy ta’lim onlayn platformalar orqali o‘quvchilarning vaqtiga moslangan holda olib boriladi. Bu esa talabalarga vaqtlarini o‘zlari xohlaganday taqsimlab, bo‘sh vaqtlarida sevimli mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishlariga, hech bo‘lmaganda sport bilan shug‘ullanishlariga yoki dam olishlariga yordam beradi.Shuning uchun AQSHda magistratura bosqichidagi talabalarning 22% ga yaqini, bakalavr bosqichidagi talabalarning 11% i onlayn ta’lim shaklini tanlab, tehsil olishadi.

Mustaqil o‘z ustida ishlash imkoniyati. Onlayn ta’lim o‘quvchiga bilimni mustaqil ravishda egallash imkonini beradi. Dars materiallarini qayta ko‘rib chiqish, qo‘shimcha manbalarni mustaqil izlab topish va mavzularni chuqurroq o‘rganish orqali shaxs o‘z ustida doimiy ishlaydi hamda kerakli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Shu bois 2023-2024-

o‘quv yillaridan boshlab davlat va xususiy oliy ta’lim muassasalariga masofaviy ta’lim yo‘nalishida kadrlar tayyorlashga ruxsat berilgan.

Xavfsizlikni ta’minlash. Onlayn ta’lim tizimida dars jarayoni turli xil onlayn platformalar orqali olib borilganiligi sabab o‘quvchi o‘zini xavfsiz his qiladigan maskani, ya’ni uyida darsda qatnashishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning xavfsizligini ta’minlaydi. Chunki talabalar oliy ta’lim muassasalariga masofalar bosib borishda turli xil hayotiga xavf soladigan vaziyatlarga duch kelib qolishi ehtimoldan holi emas.

Onlayn ta’lim shaklining kamchiliklari

Onlayn ta’lim qator afzalliklar bilan birga, ayrim kamchiliklarga ham ega va ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Intizomning yo‘qolishi. Masofaviy ta’lim tizimida har doim ham o‘qituvchilar o‘quvchilarni to‘liq nazorat ostiga ola olmaydi. Buning natijasida talabalar darslarini o‘z vaqtida o‘zlashtirmaydi va kundan kunga mas’uliyatsiz bo‘la boshlaydi.

Internet bilan bog‘liq muammolar. Masofaviy ta’lim olish uchun eng kerakli resurslardan biri bu internetdir. YUNESEF ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yil davomida butun dunyo bo‘ylab 463 million o‘quvchining masofaviy ta’lim modullariga kirish uchun imkoniyati bo‘lmagan.Bu esa, asosan, internet muammosi tufayli yuz bergan.

O‘zbekistonda ham pandemiya sharoitida internet bilan bog‘liq muammolar kuzatildi. Buning ta’lim sifatiga salbiy ta’siri bo‘lgani shubhasiz. 2021 yilda respublikamiz internet tezligi bo‘yicha 124-o‘rinni egallagan. Bu kabi tezlik bilan yuqori darajadagi masofaviy ta’limni joriy qilish qiyin.

Ta’lim sifatining tushib ketishi. Masofaviy ta’limda nazoratning sustligi sabab ko‘plab o‘quvchilar vaqtini keraksiz narsalarga sarflab, ham oltinga teng vaqtlarini boy berishlariga, ham ta’lim sifatining tushib ketishiga olib boradi. Masalan, Buyuk Britaniyada o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2020-yil o‘quvchilar atigi 2.5 soatini dars qilishga sarflagan, qolgan vaqtlarda ular vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda videoo‘yinlar o‘ynashga sarflagan.

2021-yil yanvar oyida Xalq ta’limi vazirligi maxsus bayonotida masofaviy ta’lim jarayonida aksariyat o‘quvchilar vaqtini besamar o‘tkazganini ma’lum qildi. Shu sababli 2020-2021-yilining 3-choragidan boshlab darslar to‘liq an’anaviy shaklda o‘tila boshlangan.

Xulosa

Hozirgi kunda masofaviy ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining muhim va ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda va uni keng joriy etishga katta e’tibor qaratilib, bir qator islohotlar o‘tkazilmoqda. Negaki u an’anaviy ta’lim shaklidan farq qilgan holda, bir qancha afzalliklarni taqdim etadi. Masalan, u o‘quvchi va studentlarga o‘zlariga qulay paytda ta’lim olishlariga, mustaqil o‘z ustida ishlashlariga hamda xavfsiz muhitda ta’lim olishlariga yordam beradi. Afsuski, masofaviy ta’lim afzalliklar bilan bir qatorda bir qancha kamchiliklardan ham xoli emas. Jumladan, o‘qituvchining nazorati sustligi sabab talabada intizomning yo‘qolishi, raqamlashtirish bilan bog‘liq muammolar va ta’lim sifatining tushib ketishi. Shunga qaramay, mazkur muammolarni bartaraf etish va onlayn ta’lim an’anaviy ta’lim bilan uyg‘unlashtiurish orqali uning samaradorligini yanada oshirish mumkin. Shuning uchun kelajakda masofaviy ta’limni keng joriy qilishga keng e’tibor qaratilsa va

undan oqilona foydalanilsa, bu nafaqat talaba, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qaxramonovna, S. N. (2025). MASOFAVIY TA'LIMNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI: YANGI TAHLIL. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi , 45 (4), 247-249.
2. https://cyberleninka.ru/article/n/masofaviy-talimning-kelib-chiqish-tarixi?ysclid=mk9nszqk594207660
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Masofaviy_ta’lim
4. https://zamon.uz/detail/onlayn-talim-kamchilik-va-afzalliklar-jamiyat
5. https://daryo.uz/2023/04/05/ozbekiston-va-dunyoda-onlayn-talim-qanday-rivojlanmoqda/?ysclid=mjzpz3sgjm790848017
6. https://oliygoh.uz/post/ozbekistonda-onlayn-talim-qanday-rivojlanmoqda?ysclid=mjzpumjwp2290108296
7. https://oliygoh.uz/post/onlayn-talimning-7-ta-afzal-jihati?ysclid=mjzq3k5td1798962280